



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili adabiyot fani o'qutuvchisi*  
\_\_\_\_\_ *ning*

*20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 11 – sinf*  
*adabiyot fanidan IV chorak uchun*

# *DARS*

# *ISHLANMALARI*

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf adabiyot fani IV chorak  
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>IV chorak</b>				
1.	Mustaqillik davri adabiyoti	1		
2.	Mustaqillik davri she’riyati. Jamol Kamol “Asr bilan vidolashuv”, Oydin Hojiyeva “Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin”, Usmon Azim “Grafika” she’rlari	1		
3.	Xurshid Davron “Men ko‘ksingga boshimni qo‘ydim”, Mahmud Toir “Momo yer”, Sirojiddin Sayyid “Vatan”, Iqbol Mirzo “O‘zbek” she’rlari	1		
4.	Mustaqillik davrida nasr. Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat” epopeyasi. 4-kitobidan “Sohibqiron o‘ylari”	1		
5.	"Ulug‘ saltanat" epopeyasi matni bilan tanishish	1		
6.	Epopeya tahlili	1		
7.	Mustaqillik davri dramaturgiyasi. Erkin A’zam “Tanho qayiq” dramatik rivoyat	1		
8.	"Tanho qayiq" dramatik dostoni tahlili	1		
9.	Drama yuzasidan debat	1		
10.	<b>Nazorat ishi-7</b>	1		
11.	A.P.Chexov rus adabiyotining taniqli vakili. Yozuvchining “Garov” hikoyasi talqini	1		
12.	"Garov" hikoyasi tahlili	1		
13.	Rishod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi. “Choliqushi” romanida tasvirlangan muhit.	1		
14.	Roman matni bilan tanishish. Feride obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar	1		
15.	<b>Nazorat ishi-8</b>	1		
16.	Takrorlash.	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## **Mavzu: Mustaqillik davri adabiyoti**

### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar berish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma'naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o'ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta'sir o'tkazishini, o'ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o'qib tahlil qilishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo'lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo'lganligi haqida tushuncha berish. o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

### **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

### **Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

### **III. Yangi mavzu bayoni:**

XX asr o'zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o'ziga xos bosqich sanaladi. Bu davrda o'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'lida realistik tasvir tamoyili yetakchilik qildi; badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga, insonlar dardiga yaqinlashdi, qalamga olingan mavzular zamon bilan, mavjud umuminsoniy muammolar bilan bog'landi. Eng muhimi, XX asr oxirida birorta o'zbekistonlikning yodidan chiqmaydigan tarixiy voqea sodir bo'ldi, ya'ni 1991- yil 1-sentabrida O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Barcha o'quv dargohlarida o'quv yilining birinchi kunida betakror bayramona kayfiyat hukm suradi. Demak, o'sha voqelikdan keyingi davr adabiyoti «Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti» deb atalishi tabiiy sanaladi. Badiiy ijodning har bir yo'nalishi – nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o'zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi. O'zbek she'riyati istiqloq yillarida o'ziga xos yangi adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi.

Badiiy ijod maydonida shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keldi. Adiblar o‘z ma’naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg‘ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi. Mafkuraviylashgan eski adabiy siyosatdan boshqacha, ya’ni inson erkini qadrlash, Vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg‘urish, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e‘zozlash kabi qator mavzular bu davr she’riyatida yetakchilik qildi. Vatan – ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu. O‘zbek adabiyoti tarixida yurtning go‘zal tabiatini, osmono‘par tog‘larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirlarini, bebaho ma’danlarini madh etgan she’rlar ko‘p yozildi. Tabiiyki, bu muazzam va muqaddas Vatan borlig‘i faqat moddiy ne’matlardangina iborat emas. Abdulla Oripov bir she’rida: «Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!» deb xitob qildi. Zotan, bu ko‘hna zaminda O‘zbekistonning ma’naviy muhitini, ob-havosini, shon-sharafini, shuhratini dunyoga tanitib turgan, eng muhimi, Vatan timsoliga aylangan ulug‘ siymolari bor. Bu ulug‘larning nomi yurtning uzoq-yaqin tarixi sahifalarini bezaydi. Ular orasida jahon ilm-faniga, ma’naviyat va adabiyot xazinasiga ulkan hissa qo‘shganlari, Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda, «sirli olam toqiga ilk narvon» qo‘ygani ham, «she’riyat mulkida shoh-u sulton» bo‘lgani ham, dushmanlarga qarshi «ko‘ksi qalqon» vatanparvarlari ham mavjuddir. O‘z vaqtida Vatan ozodligi, hurligi va erki ramziy ravishda shoirlar ijodining asos-negiziga joylandi. Nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti tarixida Vatan haqida she’r yozmagan shoir kamdan-kam topiladi. Albatta, ularning badiiy saviyasi, ta’sir quvvati, yuraklardan joy olishi turlicha. Ayrim holatlarda shoir Vatan so‘zini she’rida qo‘llamasdan ham el-yurtiga mehrini izhor qilishi mumkin. Ba’zan ayni so‘zning beto‘xtov takrori she’riyat muxlislarining ixlosini qaytaradi. Har kim Vatanni o‘zicha tushunadi, o‘zicha suyadi, sog‘inadi, o‘zicha kuylaydi; Vatani bilan faxrlanadi. O‘z tuprog‘idan, gulidan, gulistoni-bo‘stonidan, oshyoni-dilistonidan ajralgan bulbulning mungli fig‘oni falakka chiqadi. Odamning o‘z yurtiga mehr-muhabbati yoki ayriliq sog‘inchi ana shunday an’anaviy obrazlarda ham ifoda qilinadi. She’riyatdagi Vatan haqidagi badiiy so‘z shoir tabiatiga, ruhiyatiga, dunyoni anglashi va anglatishiga daxldor so‘zdir. Ko‘pincha, shoirning o‘zligi, ichki «men»i bilan tashqi ijtimoiy muhit bitta lirik qahramonda jamlanadi. Vatan o‘sha obrazda namoyon bo‘ladi va, aksincha, shoirning o‘z dunyosi yoki yaratgan qahramoni Vatan timsoliga aylanadi... To‘g‘risi, har qanday adabiy hodisalar, she’riy asarlar o‘z-o‘zidan go‘zallik kashf etmaydi. She’riyatning ta’sir quvvati uchun shoirlarning iste’dod darajasi va shu iste’dodni namoyon etish uchun sog‘lom adabiy muhit muhim sanaladi. Mustaqillik davri she’riyati mazmunan yangilanib borayotgan she’riyat sanaladi. Shu bilan bir qatorda, turli she’riy shakllar bo‘yicha tajribalar ham qilindi. She’rda ta’sir quvvati, har bir shoirning o‘z o‘quvchisiga o‘z aytar so‘zi va o‘ziga xos uslubi bo‘lishi lozim.

Bu dunyoga bir qo‘shiq,

Berib ketgin, shoirim –

Marhumlar uyg‘onsinlar,

Uxlolmasin tiriklar.

(Usmon Azim)

Bu o‘tkir va o‘ziga xos poetik tabiatli to‘rt misrada shoir o‘z zamondoshlarining badiiy jihatdan yuksak, ta’sirli, umrboqiy she’rlar yozishga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi. Shunday she’riy namunalarni o‘z tarkibida jamlagan o‘nlab shoirlarning to‘plamlari aynan istiqloq yillarida dunyo yuzini ko‘rdi. Mustaqillik yillarida qator katta va yosh avlod ijodkorlarining o‘nlab she’riy kitoblari nashr etildi. Tabiiyki, bu she’riy ko‘ngil izhorlarida har bir shoirning o‘z badiiy olami, mahorati va his-tuyg‘ulari aks etgan.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Mustaqillik davri adabiyoti namoyondalaridan yana kimlarni bilasiz?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Mustaqillik davri she'riyati. Jamol Kamol "Asr bilan vidolashuv", Oydin Hojiyeva "Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin", Usmon Azim "Grafika" she'rlari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar berish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma'naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o'ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta'sir o'tkazishini, o'ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o'qib tahlil qilishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo'lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasoratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo'lganligi haqida tushuncha berish. o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

**II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		45 daqiqa

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Jamol Kamol. O'zbekiston xalq shoiri (1938-yilda tug'ilgan)**

**Asr bilan vidolashuv**

Yigirmanchi asr, xayr, alvido,  
 Kezdik yo'llaringni, so'qmoqlaringni.  
 Yashadik umid ham tahluka aro,  
 Chekdik rohatingni, qiynoqlaringni.  
 Ba'zida kun yorug', ba'zan oy qaro,  
 Totdik tahqirlaring, ardoqlaringni,  
 Ne-ne talotumlar, qyunlar ko'rdik,  
 Ne-ne tomoshalar, o'yinlar ko'rdik.



**Oydin Hojiyeva. O‘zbekiston xalq shoiri (1942-yilda tug‘ilgan)**

**Musta qil vatanni baxt nuri chaysin**


Sumbula suviday tiniq bir Ayol  
Dunyoni asraydi balo-qazodan.  
Yurtning ro‘zg‘orida sen baraka, bol,  
Qaldirg‘och niyatli, umri ozodam!  
Yerni uyqu devi aldab, muzlatar,  
Jonini ilitgay Qavs yaxobi.  
Qarri, soqov yerni qayta so‘zlatar  
Dehqon yuragining mayin oftobi.  
Oyog‘ingda tilla kavushchalarmas,  
Kirza etik ko‘rdim cho‘yanday og‘ir.  
Sumbul sochlaringga shivirlab ming sas,  
Har yil oshiq bo‘lar ko‘klamgi yomg‘ir.  
Har yil shonalagan g‘o‘za boshiga  
Egilding, unutib polaponingni.  
Men ko‘rdim: balxi tut bolang qoshida  
Og‘ziga dur tutgan saratoningni.  
Sendan rozi ketar shu ko‘hna ketmon,  
Boshingdan ter quyar, chopiq qilarsan.  
Erkaklar qocharlar shiyponni chog‘lab,  
Nozigim, sen qachon hordiq bilarsan?



**Usmon Azim. O‘zbekiston xalq shoiri (1950-yilda tug‘ilgan)**

**Grafika**

Ko‘zing qaro sening, qoshlaring qaro,  
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.  
Qo‘lingdagi ta’na toshlaring qaro,  
Menga g‘amgin boqib turishlaring oq  
Unutishing – qaro, hijroning qaro,  
Sog‘inching oppoqdir, xatlaring – oppoq.  
Qarodir yurganing o‘ch-mehr aro,  
Menga tashlab ketgan dardlaring – oppoq.  
Shommi yo saharmi – vaqtimdir qaro,  
Sen deb to‘kayotgan yoshlarim oppoq.  
Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,  
O‘ttiz to‘rt yoshingda sochlaring oppoq.  
Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,  
Oq-qaro bo‘yoqlar bizning bog‘larda...  
Men million bo‘yoqni bilardim, axir,  
Ikkimiz baxtiyor bo‘lgan chog‘larda.



**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

- 1 Oydin Hojiyevaning Musta qil vatanni baxt nuri chaysin degan sherida nimalar tasvirlangan
- 2 Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatining eng muhim mavzularni sanab bering.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## *Zokirjon Admin bilan*

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**35 listdan iborat adabiyot fanidan 11-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**